

O'QUVCHILARDA INGLIZCHA FRAZEOLOGIZMLARNI O'ZLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Ibragimova Dilbar Adxamovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Dotsent

ORCID 0009-0001-1794-5030

e-mail: dilbaribragimova1984@gmail.com, +998903182080

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17825230>

Annotatsiya: Mazkur tezisda o'quvchilarda ingliz tilidagi frazeologizmlarni o'zlashtirish jarayonining metodik va kommunikativ, psixolingvistik mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Til birliklarining barqaror tuzilishi, ko'chma va ko'p ma'nolilik xususiyati hamda madaniy konnotatsiyalari o'quvchilar uchun murakkablik tug'dirishi sababli, frazeologizmlarni samarali o'rgatishning kognitiv asoslari, vizual-mnemonik metodlar, assotsiativ fikrlashni shakllantirish yo'llari, kontekstual ta'lim texnologiyalari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'rganish mexanizmlari tahlil etiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarni o'zlashtirishda o'quvchi lug'at boyligi, madaniyatlararo kompetensiya, tilni sezish (language awareness) va kommunikativ faoliyatning integrativ roli asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: til, frazeologizm, tafakkur, barqaror birikma, psixolingvistik mexanizm, vizual-mnemonik metodlar, assotsiativ fikrlash.

KIRISH. Til – insoniyatning asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, u nafaqat axborot uzatadi, balki turli millatlar va madaniyatlar dunyoqarashini, ularning tarixiy tajribasi va mentallini ifodalaydi. Xususan, tilning frazeologik qatlami — ya'ni frazeologik birliklar (idiomalar, tez-iboralari, qat'iy tuzilgan iboralar) — bu qatlam tilning ma'no boyligi, nutqning ifodali-estetik imkoniyatlari hamda madaniy-lingvistik merosining eng to'liq namoyon bo'lish yo'llaridan biridir.¹ Tilning frazeologik qatlami har qanday milliy tilning eng murakkab, shu bilan birga, eng rang-barang va madaniy jihatdan boy qatlamlaridan biri sifatida qaraladi. Ingliz tilida shakllangan frazeologizmlar, ya'ni barqaror iboralar, idiomalar, konnotativ birliklar va obrazli so'z birmalari o'zining ko'chma ma'nosi, struktura jihatidan o'zgarishligi va madaniy ramziyligi bilan ajralib turadi. Ushbu birliklar xalq tafakkuri, tarixiy tajribasi va ijtimoiy ong bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular orqali til o'zining milliy-madaniy mazmunini chuqur ifodalaydi. Shu sababli inglizcha frazeologizmlar nafaqat lingvistik hodisa, balki madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi sifatida ham alohida ilmiy e'tiborni talab qiladi.

Ingliz tilini o'rganuvchi shaxs uchun frazeologizm(barqaror birikma)larni o'zlashtirish jarayoni oddiy leksik birliklarni yodlashdan tubdan farq qiladi. Barqaror birikmalarning ko'p qismi literal tarjimaga bo'ysunmaydi, ularning mazmuni kontekstga, metaforik ma'noga, ko'pincha tarixiy yoki madaniy asosga suyanadi. Masalan, *“break the ice”*, *“spill the beans”*, *“once in a blue moon”* kabi idiomalar tarkibida mavjud so'zlarning yuzaki ma'nosi bilan umumiy semantik mazmuni orasida sezilarli tafovut mavjud. Bu esa o'rganuvchilardan yanada kengroq kognitiv jarayon, assotsiativ fikrlash va madaniy bilimlarning bilishini talab qiladi.

Frazeologizm(barqaror birikma)lar tilning nutqiy boyligini oshiruvchi, fikrni lo'nda, obrazli, emotsional tarzda yetkazishga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ vositalardandir. Ingliz tilida frazeologizmlardan faol foydalanish o'quvchining lingvistik kompetensiyasini kengaytiribgina qolmaydi, balki uning madaniy savodxonligi va real til muhitiga moslashuv

¹ <https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/10951>

darajasini oshiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlar tabiatiga xos barqarorlik, tarkibiy o'zgarimaslik, semantik yaxlitlik kabi xususiyatlar ularni o'rgatishda maxsus metodik yondashuvlarni talab qiladi.

Asosiy qism: Tilshunoslikka ilk bor frazeologizmlar atamasi S.Balli tomonidan kiritilgan. Olim frazeologik birliklar(barqaror birliklar) tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdi: "Tilda turg'un holatda mavjud bo'lgan, hamda nutqqa tayyor holatda olib kiriladigan birliklar"dir. Bundan ko'rinib turibdiki frazeologizmlar nutq jarayoniga o'zgarishsiz tayyor holda o'zlashtiriladi.

Ingliz va Amerika tilshunoslari L.P. Smith, A. Mackay, J. Seidlou, va W. McMordi "idioma" terminini ilk bor o'z asarlarida qo'llashgan va bu atamaga "tarkibidagi so'zlar ma'nosidan kelib chiqib ma'nosi anglashila olmaydigan til birliklari" deb ta'rif berganlar. Yuqorida aytib o'tilgan izohdan tushunishimiz mumkinki, frazeologik birliklar turli tillarda umumiy jihatga ega, va ularning ma'nosini tahmin qilish uchun ular tarkibidagi alohida so'zlarning leksik ma'nosini bilish kifoya emas. Bu holat ingliz va o'zbek tillaridagi frazemalarni qiyosiy tadqiq etish orqali ham kuzatilishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi "break a leg" idiomasi tarkibidagi "break" – sindirmoq, yoki "a leg" – oyoq so'zlarining tub ma'nosi frazemaning ma'nosidan tubdan farq qiladi. Bu idioma o'zbek tiliga "omadingni bersin" shaklida tarjima qilinadi. O'zbek tilida ham shunday frazeologizmlar mavjud, masalan, "oshig'i olcha" (omadli), "tegirmondan butun chiqadi" (uddaburon), "tomdan tushganday" (to'satdan).²

Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida rus tilshunosi E.D. Polivanovning o'rni beqiyosdir. Uning ta'limotiga ko'ra, frazeologiya sohasining vujudga kelishi, alohida fan sifatida takomillashishi tilshunoslik uchun ahamiyatli bo'lib, bu ko'plab dalillar asosida isbotlanishi mumkin. Polivanovning yozishicha, sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda, biroq sinataksis so'z birikmalarining umumiy tiplarini, xususiyatlarini tadqiq etsa, yangi vujudga keladigan yo'nalish so'zlarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarining aniq individual ma'no jihatlari bilan shug'ullanadi. Polivanov mazkur sohani frazeologiya yoki idiomatika deb nomlanishini taklif etgan.³

Frazeologiya va frazeologik birikmalar o'zbek tilshunosligida ham chuqur o'rganilgan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda izlanishlar olib 84roga o'zbek tilshunoslari qatoriga M. E. Umarxo'jayev, A. A. Yaxshiyev, M. A. Kuchiyev kabi olimlarni kiritish mumkin. M. A. Kuchiyev o'zining "Frazeologiyaning tilshunoslikda o'rganilishi" nomli maqolasida frazeologizmlarni erkin so'z birikmalaridan farqlab, bir qator ilmiy mulohazalarni ilgari suradi. Muallifning ta'kidlashicha, erkin so'z birikmalari nutq jarayonida yaratiladi va qo'llanish davomida o'zining dastlabki ma'nosidan chekinib, ko'chma ma'no asosida turg'un birikmaga aylanishi mumkin. Bunga misol sifatida nemis tilidagi "Jemandem den Kopf waschen" birikmasi keltiriladi: u erkin shaklda "kimningdir boshini yuvmoq" mazmunini bildirsa-da, ko'chma ma'noda "koyimoq, tanbeh bermoq" ma'nosini ifodalovchi frazeologik birlik sifatida qo'llanadi.

O'quvchilarda inglizcha frazeologizmlarni o'zlashtirish jarayoni ko'p qatlamli lingvistik, psixolingvistik va metodik omillar bilan belgilanuvchi murakkab til kompetensiyasidir.

² N.E.Yusupova . Frazeologik birliklarning tilshunoslikda o'rganilishi. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 60-bet

³ N.E.Yusupova . Frazeologik birliklarning tilshunoslikda o'rganilishi. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 60-bet

Frazeologik birliklarning tarkibiy barqarorligi, ko'chma ma'no asosida shakllangan semantik yaxlitligi, madaniy konnotatsiyalarga boyligi hamda literal tarjimaga bo'ysunmasligi o'rganuvchilar uchun qo'shimcha kognitiv yuklama hosil qiladi. Shuning uchun frazeologizmlarni samarali o'zlashtirish oddiy lug'at yodlash jarayonidan farq qiladi va yanada chuqurroq tafakkur, assotsiativ fikrlash hamda madaniyatlararo bilimlarni talab etadi. Shunday qilib, ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'zlashtirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchining lingvistik, kognitiv va madaniyatlararo kompetensiyalarini integrativ tarzda rivojlantiradi. Frazeologizmlarni o'rgatishning zamonaviy metodik yondashuvlari — kognitiv-lingvistik, vizual-mnemonik, assotsiativ, kontekstual va kommunikativ texnologiyalar — o'quvchilarning mustahkam, barqaror va faol nutq ko'nikmalarini shakllantirishga samarali xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot inglizcha frazeologiyani o'qitish jarayonida kompleks yondashuvning dolzarbligini tasdiqlaydi va ushbu yo'nalishdagi keyingi ilmiy-amaliy izlanishlar uchun metodik hamda nazariy asos yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ш.Балли. *Французская стилистика*. Москва: Изд-во иностранной литературы. 1961й.
2. E.D.Polivanov. *Лингвистические заметки. Фразеология и её место среди языковых дисциплин*. Ташкент: Средазиздат. 1931 й.
3. L.P.Smith,. *Words and Idioms: Studies in the English Language*. London: Constable & Co. 1925 й.
4. J.Seidl, McMordie, W. (1988). *English Idioms and How to Use Them*. Oxford: Oxford University Press.
5. A.Mackay. *Teaching Idioms: A Cognitive Approach*. Cambridge: Cambridge University Press. 1997 й.
6. М. А. Кутичев. *Фразеологиянинг тилшуносликда ўрганилиши*. Тошкент: Фан. 1984 й.
7. Umarxo'jayev, M. E. *O'zbek tilining frazeologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi. 1991 й.